



**O'zbekiston Respublikasi
Markaziy banki**

Biznes kayfiyati sharhi

2025-yil I chorak



Biznes kayfiyati sharhi – O‘zbekiston Respublikasi hududlaridagi iqtisodiy faollik, tadbirkorlik muhiti va bandlik bilan bog‘liq tendensiyalarni muqobil ko‘rsatkichlar orqali o‘zida ifoda etadi.



Ushbu sharh joriy yilning I choragida mamlakatda shakllangan biznes kayfiyatini o‘rganish maqsadida mart oyida hududlarda o‘tkazilgan so‘rov natijalari asosida tayyorlandi. So‘rovda mamlakatning barcha hududlari to‘liq qamrab olingan bo‘lib, iqtisodiyotning turli sohalarida faoliyat yurituvchi ikki mingdan ortiq tadbirkorlar ijtimoiy tarmoqlar orqali ishtirok etdi. Bunda, tadbirkorlik faoliyati yo‘nalishlarini kengroq qamrab olish va reprezentativlikni ta‘minlashga alohida e‘tibor qaratildi.

So‘rovnoma hududlardagi iqtisodiy faollik, tadbirkorlik sharoitlari va muhitiga ta‘sir qiluvchi omillar, energiya iste‘moli hajmi o‘zgarishi, yuk tashish ko‘rsatkichlari, sohalarda ishchi kuchiga bo‘lgan talab, bandlik darajasi, savdo hajmi hamda soha istiqboli bo‘yicha joriy holat va kutilmalarni aniqlash bo‘yicha savollardan tashkil topgan.

Har bir savolga bir nechta javob variantlari birlashtirilgan bo‘lib, qatnashuvchilar tomonidan bir paytning o‘zida ulardan bir yoki bir nechta tanlanishi mumkin. Natijalar har bir javob variantini tanlaganlar sonini umumiy javoblar soniga bo‘lish va alohida guruhlar bo‘yicha vaznli koeffitsiyentlar qo‘llash orqali umumlashtirilgan. Umumlashtirilgan ma‘lumotlar taqsimot qoidalari asosida tahlil qilinib, o‘rtacha ko‘rsatkichlar bilan taqqoslangan.

Tahlillar mamlakatning turli hududlaridagi iqtisodiy sharoitlarni qiyosiy taqqoslash va ularning o‘zgarish tendensiyalarini sifat jihatidan o‘rganish imkonini beradi.

Umumiy xulosalar

Tadbirkorlik muhiti

2025-yilning I choragi yakunlari bo'yicha tadbirkorlik muhitini o'rganish natijalari respublikadagi biznes faoliyatida ijobiy tendensiya davom etayotganini ko'rsatmoqda. So'rovnomada ishtirok etgan tadbirkorlarning 56 foizi joriy sharoitlarni 2024-yilning IV choragiga nisbatan yaxshilangan, deb baholagan. Ushbu ko'rsatkich so'nggi ikki yil davomida o'rtacha 50 foizdan yuqori darajada saqlanib kelmoqda va bu tadbirkorlar ishonchining barqarorligidan dalolat beradi.

Respondentlar biznes muhitidagi ijobiy o'zgarishlarni, avvalo, bank xizmatlarining sifati va raqobat muhiti yaxshilangani, kreditlar olish imkoniyatlarining kengaygani hamda litsenziya va guvohnomalar olish tartibining soddalashgani bilan izohlagan. Shu bilan birga, bojxona tariflari va cheklovlari, monopollashuv darajasi, soliq ma'murchiligi va energiya ta'minoti tizimidagi holat o'zgarishsiz qolganligi qayd etildi.

Iqtisodiy faollik

Mazkur chorakda iqtisodiy faollik ko'rsatkichlari o'tgan chorak darajasida barqaror o'sishni davom ettirdi. Yuk tashish hajmlari va buyurtmalar soni biroz ortishi qayd etildi. Gaz va elektr energiyasi iste'moli ham o'sishda bo'lib, ayniqsa Samarqand, Xorazm va Farg'ona viloyatlarida yuqori sur'atda namoyon bo'ldi. Andijon, Namangan, Samarqand va Surxondaryo viloyatlarida esa buyurtmalar hajmi o'tgan chorakka nisbatan sezilarli darajada oshdi. Ushbu o'sishda yetkazib berish xizmatlari, umumiy ovqatlanish va ishlab chiqarish tarmoqlari asosiy hissa qo'shdi.

Korxonalarning ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasi ham biroz yaxshilandi, yuqori yoki o'rta quvvatda ishlayotgan subyektlar ulushi 50 foizdan 52 foizgacha ko'tarildi. Bunda Andijon, Xorazm, Toshkent, Qashqadaryo, Jizzax va Samarqand viloyatlari yetakchi bo'ldi. Shu bilan birga, Buxoro, Farg'ona, Namangan viloyatlari hamda Qoraqalpog'iston Respublikasida ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish kamaydi. Tadbirkorlar tomonidan energiya ta'minotidagi uzilishlar, avtomobil yonilg'isining qimmatlashishi, ijara xarajatlarining yuqoriligi hamda soliq tizimidagi murakkabliklarni to'liq quvvatda faoliyat yuritmaslikning asosiy sabablari sifatida qayd etildi.

Bandlik

Bandlik bozorida I chorak davomida o'rtacha o'sish qayd etilib, qo'shimcha ishchi kuchiga bo'lgan talab, asosan, Samarqand, Surxondaryo va Xorazm viloyatlarida oshgan. Kelgusi chorakda umumiy talab o'sishining barqaror saqlanishi kutilayotgan bo'lsa-da, Andijon, Namangan, Samarqand, Sirdaryo va Surxondaryoda mehnat bozori yanada faollashishi taxmin qilinmoqda. Ishlab chiqarish, moliyaviy xizmatlar, ta'lim, yetkazib berish va umumiy ovqatlanish sohalari qo'shimcha ishchi kuchiga bo'lgan ehtiyojning asosiy drayverlari bo'lib qolmoqda.

Moliyaviy holat

Korxonalar qarz yuki o'rtacha darajada o'zgarishsiz qolganiga qaramay, so'nggi uch chorak davomida qarz majburiyatlari o'sganini bildirgan tadbirkorlar ulushi ortib bormoqda. Shu bilan birga, qo'shimcha kreditlarga bo'lgan talab borasidagi kutilmalar ham o'sish trayektoriyasida qolmoqda. Samarqand, Namangan va Sirdaryo viloyatlarida kelgusi chorakda kredit resurslariga ehtiyoj sezilarli oshishi kutilmoqda. Ishlab chiqarish, kommunal va maishiy xizmatlar, umumiy ovqatlanish hamda ta'lim sohalaridagi subyektlar kredit mablag'lariga nisbatan yuqori qiziqish bildirmoqda.

Istiqbollar

O'rta muddatli istiqbollarda, tadbirkorlarning mamlakat iqtisodiy rivojlanishiga bo'lgan ishonchi ijobiy saqlanmoqda. 2024-yilning uchinchi choragidan buyon ijobiylik darajasi biroz pasayish tendensiyasini namoyon etganiga qaramasdan, respondentlarning 59 foizi kelgusi davrda makroiqtisodiy sharoit yaxshilanishiga ishonch bildirgan.



Toshkent shahri, Toshkent viloyati

Toshkent shahri va Toshkent viloyatida 2025-yilning birinchi choragida respondentlarning 46 foizi biznes shart-sharoitlarini yaxshilangan deb baholadi. Bu ko'rsatkich 2024-yilning IV choragiga nisbatan 5 foiz bandga kamaydi. Ijobiy baholar, avvalo, bank xizmatlarining sifati oshib, kredit olish imkoniyatlari kengaygani bilan izohlandi.


Shu bilan birga, bojxona tariflari va cheklovlari, raqobat muhiti, monopollashuv darajasi, soliq ma'murchiligi hamda litsenziya-guvohnoma olish tartiblarida sezilarli o'zgarish kuzatilmagani ta'kidlandi. Gaz va elektr energiyasi ta'minoti bo'yicha ijobiy baholar ketma-ket uch chorak davomida pasayish trayektoriyasida bo'lib, ushbu sohalar bo'yicha tadbirkorlarning xavotirlari saqlanib qolmoqda. Raqobat muhitining yaxshilanishini sezgan respondentlar ulushi 11 foiz bandga qisqardi. Mazkur dinamika, ayniqsa, ta'lim, ishlab chiqarish, umumiy ovqatlanish va qurilish tarmoqlarida namoyon bo'ldi.

Kredit mablag'larini olish masalasida ijobiy muhit saqlanib qoldi, so'rovda qatnashgan subyektlarning 53 foizi kredit olish shartlari yanada soddalashganini qayd etdi. Shuningdek, yoqilg'i va energiya iste'moli o'sishi sur'ati sekinlashgan bo'lsa-da, aksariyat korxonalarda talab hali ham ortib bormoqda. Energiya sarfi ayniqsa qishloq xo'jaligi, tibbiyot, kommunal xizmatlar va hunarmandchilik sohalarida yuqori shakllandi.


Yuk tashish hajmi o'rtacha hisobda o'zgarishsiz qoldi, biroq qishloq xo'jaligi, turizm va maishiy xizmatlar sektorlari vakillari tashish hajmining kamayganini bildirishdi. Shuningdek, umumiy ovqatlanish, yetkazib berish xizmatlari va ishlab chiqarish tarmoqlarida qo'shimcha ishchi kuchiga bo'lgan talab o'sish sur'atining sekinlashgani qayd etildi.

Shu bilan birga, birinchi chorakda buyurtmalar hajmi o'sib, kommunal xizmatlar, tibbiyot hamda qurilish sohalaridagi tadbirkorlar yuqori o'sishni kuzatdi.


1-rasm. Sohalar kesimida biznes kayfiyati o'zgarishi, respondentlar ulushi, foizda



2-rasm. Biznes kayfiyatiga ta'sir etgan omillar, respondentlar ulushi, foizda



3-rasm. Iqtisodiy faollik ko'rsatkichlari, respondentlar ulushi, foizda





Toshkent shahri, Toshkent viloyati

Kredit va qarz to'lovlari bo'yicha o'sish sur'ati biroz sekinlashib, 2024-yilning ikkinchi choragidan buyon kuzatilayotgan barqaror o'sish trendi pasayishni boshladi. Tadbirkorlarning 26 foizi mazkur davrda kredit majburiyatlari hajmi ortganini qayd etdi (oldingi chorakda 41 foiz).

Ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish ko'rsatkichi esa tadbirkorlik faolligining ayrim tarmoqlarda tiklanayotganini ko'rsatdi. Birinchi chorak davomida yuqori quvvatda ishlagan korxonalar ulushi 45 foizdan 52 foizgacha oshib, yetkazib berish, ta'lim, kommunal xizmatlar, hunarmandchilik hamda aloqa-axborotlashtirish sohalari faol tarmoqlardan bo'ldi.


Aksincha, to'liq quvvatda ishlay olmayotgan subyektlar yuqori ijara xarajatlari, avtomobil yonilg'isining qimmatlashuvi, ichki talabning yetarlicha shakllanmagani hamda gaz va elektr ta'minotidagi uzilishlar kabi omillarni asosiy to'siqlar sifatida baholadilar.

Respondentlarning yarmi yoqilg'i va energiya iste'moli hajmi ortishiga tayyorlanayotgan bo'lsa, buyurtmalar hajmi hamda qo'shimcha ishchi kuchiga bo'lgan talabdagi o'sish bo'yicha kutilmalar biroz sekinlashgan. Yetkazib berish xizmatlari, tibbiyot, kommunal xizmatlar va qurilish sohalarda yuqori faollikning o'sishi kutilmoqda. Shu bilan birga umumiy ovqatlanish, ishlab chiqarish, aloqa-axborotlashtirish va chakana savdo tarmoqlarida ham xizmat ko'rsatish hajmi oshishi rejalashtirilayotgani qayd etildi.


Shu bilan birga, qo'shimcha kredit resurslariga ehtiyoj sezayotgan respondentlar ulushi 2024-yilning to'rtinchi choragiga nisbatan biroz kamaygan. Kreditga bo'lgan talab, ayniqsa, qishloq xo'jaligi, aloqa, hunarmandchilik va qurilish sohalarda pasayishi kutilmoqda.

O'rta muddatli istiqbolda ijobiylik saqlanib qolmoqda. Tadbirkorlarning 53 foizi kelgusi uch yil ichida milliy iqtisodiyot va biznes muhitining yaxshilanishiga ishonch bildirgan.


4-rasm. Ayrim kunlarda faoliyat yuritmaslik sabablari, jami respondentlarning ulushi, foizda



5-rasm. Kelgusi chorak bo'yicha kutilmalar, respondentlar ulushi, foizda



6-rasm. Kelgusi 3 yilda iqtisodiyot va biznes istiqbollari bo'yicha kutilmalar, respondentlar ulushi, foizda





Buxoro, Navoiy, Samarqand

2025-yilning dastlabki choragida Buxoro, Navoiy va Samarqand viloyatlarida o'tkazilgan so'rov natijalari tadbirkorlik muhitidagi ijobiy ishonchning barqaror saqlanayotganini ko'rsatdi. Respondentlarning 58 foizi biznes shart-sharoitlari yaxshilanganini ta'kidladi, ayniqsa kommunal xizmatlar, moliya, tashish va aloqa sohalarida bu o'zgarishlar sezilarli bo'lgan.


Tadbirkorlar, bank xizmatlari sifati va raqobat muhitining oshgani bilan birga, kredit hamda litsenziya olish jarayonlarining soddalashganini ijobiy o'zgarishlarning asosiy omillari sifatida sanab o'tdilar. Shunga qaramay, soliq ma'murchiligi, bojxona tarif va cheklovlari hamda energiya ta'minoti sohalarida sezilarli o'zgarishlar kuzatilmagani ta'kidlandi.

Raqobat muhiti oldingi chorakka nisbatan yaxshilanib, respondentlarning 52 foizi, ayniqsa, ishlab chiqarish, yetkazib berish, kommunal xizmatlar, tibbiyot va moliya sohalarida ijobiy o'zgarishlarni qayd etdi.


Gaz va elektr ta'minoti o'rtacha hisobda o'zgarmay saqlanib qolgan bo'lsa-da, ushbu tarmoqlarda ijobiy o'zgarishlarni qayd etgan tadbirkorlar ulushi 36 foizdan 30 foizgacha qisqardi. Shuningdek, 46 foiz respondentlar tomonidan yo'l infratuzilmasida ijobiy o'zgarishlar bo'lgani ta'kidlandi. Shuningdek, ma'muriy aralashuv holatlarining kamaygani haqida bildirilgan fikrlar ulushi ham o'sish tendensiyasini qayd etdi.

Yoqilg'i va energiya iste'moli o'sganligi ta'kidlandi, tadbirkorlarning qariyb 53 foizi yoqilg'i va energiya iste'moli hajmining oshganini bildirdilar. Eng yuqori o'sish transport, aloqa va axborot, umumiy ovqatlanish hamda tibbiyot sohalarida hissasiga to'g'ri keldi. Buyurtmalar hajmida ham ketma-ket sakkizinchi chorak ijobiy dinamika saqlanib qolmoqda, ushbu chorakda u asosan, aloqa, tashish, kommunal va moliya xizmatlar hisobiga ta'minlandi.


7-rasm. Sohalar kesimida biznes kayfiyati o'zgarishi, respondentlar ulushi, foizda



8-rasm. Biznes kayfiyatiga ta'sir etgan omillar, respondentlar ulushi, foizda



9-rasm. Iqtisodiy faollik ko'rsatkichlari, respondentlar ulushi, foizda





Buxoro, Navoiy, Samarqand

Qo'shimcha ishchi kuchiga bo'lgan talab, asosan, moliya, axborot texnologiyalari va ishlab chiqarish sohalarida oshgan bo'lsa, tibbiyot hamda qishloq xo'jaligida biroz pasaydi.

Tadbirkorlarning 45 foizi kreditlar va ular bo'yicha to'lovlar hajmi oshganini bildirishdi. Bu o'sish, avvalo, moliya, qurilish hamda maishiy xizmatlar tarmoqlarida yaqqol namoyon bo'ldi.


Hisobot davrida ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanishning ijobiy dinamikasi saqlanib qoldi. O'rta va nisbatan yuqori quvvatlarda ishlayotgan respondentlar ulushi biroz ortdi, yuqori quvvatdagi faoliyat asosan kommunal xizmatlar, moliya, aloqa, turizm hamda tashish xizmatlarida qayd etildi. Aksincha, qishloq xo'jaligi, ishlab chiqarish va savdo tarmoqlarida quvvatdan foydalanish sur'ati sekinlashdi. Tadbirkorlar to'liq quvvatda ishlamaslikning asosiy sabablari sifatida soliq tizimidagi qiyinchiliklar, ijara xarajatlarning yuqoriligi, energiya ta'minotidagi uzilishlar hamda yonilg'i narxlarining o'sishini ko'rsatdilar.

Yetkazib berish, moliya, kommunal xizmatlar va ishlab chiqarish yo'nalishlarida energiya iste'molining yuqori o'sishi kutilmoqda. Qo'shimcha ishchi kuchiga bo'lgan talab bo'yicha ijobiy kutilmalar ham o'sishda davom etdi. Aloqa va axborotlashtirish, moliya, tashish hamda kommunal xizmatlar sohalarida yangi ish o'rinlari yaratilishi rejalashtirilmoqda. Shuningdek, aloqa va axborotlashtirish, tashish va moliya tarmoqlarida buyurtmalar hajmining ko'payishi bo'yicha kutilmalar ham barqaror saqlanib qoldi.


Respondentlarning deyarli yarmi kelgusi chorakda kredit mablag'lariga bo'lgan ehtiyoj hozirgi darajadan yuqori bo'lishini kutmoqda. Bu ehtiyoj, ayniqsa, kommunal va maishiy xizmatlar, tashish, ta'lim va ishlab chiqarish sektorlarida sezilarli bo'lishi mumkin.

Tadbirkorlarning 62 foizi kelgusi uch yilda mamlakat iqtisodiyoti va biznes muhitining yanada yaxshilanishiga ishonch bildirgan.


10-rasm. Ayrim kunlarda faoliyat yuritmaslik sabablari, jami respondentlarning ulushi, foizda



11-rasm. Kelgusi chorak bo'yicha kutilmalar, respondentlar ulushi, foizda



12-rasm. Kelgusi 3 yilda iqtisodiyot va biznes istiqbollari bo'yicha kutilmalar, respondentlar ulushi, foizda





Andijon, Namangan, Farg'ona


2025-yilning birinchi choragida Farg'ona vodiysida tadbirkorlik muhitining yaxshilanishi bo'yicha barqaror tendensiya saqlandi va ijobiy baho bergan respondentlar ulushi 57 foizga yetdi. Tadbirkorlar ushbu ijobiylikni asosan, bank xizmatlarining sifati oshgani va kredit resurslarini olish kengaygani, raqobat muhitining yaxshilanayotgani, shuningdek, litsenziya hamda guvohnomalarni olish tartibi soddalashgani bilan izohlashdi. Yo'l-transport infratuzilmasi, soliq ma'murchiligi, bojxona tariflari va cheklovlari hamda monopollashuv darajasida esa sezilarli o'zgarishlar kuzatilmaganini bildirishdi.

Gaz va elektr bilan ta'minlanishda ijobiy o'sishni sezgan tadbirkorlar ulushi chorak davomida 10 foiz bandga ko'paydi. Bu, asosan, umumiy ovqatlanish, turizm, aloqa-axborot texnologiyalari hamda hunarmandchilik sohalarida faoliyat yuritayotganlar tomonidan ta'kidlandi.


Yoqilg'i-energiya iste'moli o'sishi 4 foiz bandga qisqarganiga qaramasdan, 59 foiz tadbirkorlar energiya iste'mollari oshganini ma'lum qildi. O'sish sur'atining biroz sekinlashishi tibbiyot, ta'lim va qishloq xo'jaligi tarmoqlarida qayd etildi.

Yuk tashish hajmi o'rtacha hisobda ortib, asosiy o'sish umumiy ovqatlanish, moliya, savdo va qurilish sohaları hissasiga to'g'ri keldi. Mehnat bozorida ham faollik saqlanib, qo'shimcha ishchi kuchiga talab moliya, turizm va ishlab chiqarish tarmoqlarida ko'paydi, biroq yetkazib berish xizmatlari, ta'lim va tibbiyot sohalarida bu ko'rsatkich biroz sekinlashdi. Kreditlar va ular bo'yicha to'lovlar hajmi 8 foiz bandga ortdi, asosiy o'sish maishiy va kommunal xizmatlar, hunarmandchilik hamda qurilish vakillarida kuzatildi.


13-rasm. Sohalar kesimida biznes kayfiyati o'zgarishi, respondentlar ulushi, foizda



14-rasm. Biznes kayfiyatiga ta'sir etgan omillar, respondentlar ulushi, foizda



15-rasm. Iqtisodiy faollik ko'rsatkichlari, respondentlar ulushi, foizda





Andijon, Namangan, Farg'ona

Ushbu hududlarda yuqori yoki o'rta quvvatlarda ishlayotgan korxonalar ulushi 11 foiz bandga kamaygani qayd etildi. Nisbatan yuqori quvvatda faoliyatni davom ettirgan sohalar qatoriga yetkazib berish xizmatlari, tibbiyot, moliya, aloqa-axborot texnologiyalari va kommunal xizmatlar kirdi.

Kelgusi chorak bo'yicha kutilmalar, umuman olganda, ijobiy shakllandi. Yoqilg'i va energiya iste'moli jihatidan respondentlarning 51 foizi talabning oshishini kutayotganini bildirdi, yuqori o'sishni yuk tashish, kommunal xizmatlar, umumiy ovqatlanish va hunarmandchilik sohalaridagi tadbirkorlar kutmoqdalar.


Yuk tashish hajmlari bo'yicha prognozlar ham ijobiylikicha qolmoqda, xususan, hunarmandchilik, ishlab chiqarish, savdo va umumiy ovqatlanish tarmoqlarida yuqoriroq o'sish kutilmoqda.

Mehnat bozoriga oid kutilmalarda qo'shimcha ishchi kuchiga ehtiyoj ta'lim, yuk yetkazib berish, moliya, umumiy ovqatlanish va qishloq xo'jaligi sohalarida yuqori baholanmoqda.


Shu bilan birga, 49 foiz respondent kelgusi chorakda kredit resurslariga bo'lgan talab oshishini kutayotganini ma'lum qildi. Kreditlarga qiziqish, birinchi navbatda, maishiy xizmatlar, qishloq xo'jaligi, ishlab chiqarish hamda aloqa-axborot xizmatlari tarmoqlarida ortishi ehtimoli mavjud.

O'rta muddatli istiqbollar nisbatan ijobiy bo'lib qolmoqda, tadbirkorlarning 56 foizi uch yil ichida milliy iqtisodiyot va biznes muhitining yaxshilanishiga ishonch bildirmoqda.


16-rasm. Ayrim kunlarda faoliyat yuritmaslik sabablari, jami respondentlarning ulushi, foizda



17-rasm. Kelgusi chorak bo'yicha kutilmalar, respondentlar ulushi, foizda



18-rasm. Kelgusi 3 yilda iqtisodiyot va biznes istiqbollari bo'yicha kutilmalar, respondentlar ulushi, foizda





Qashqadaryo, Surxondaryo

2025-yilning birinchi choragida Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida tadbirkorlik kayfiyati sezilarli darajada yaxshilandi, biznes sharoitlarini ijobiy baholagan respondentlar ulushi 48 foizdan 61 foizgacha oshdi. Ayniqsa, qishloq xo'jaligi, umumiy ovqatlanish, aloqa-axborot texnologiyalari, moliyaviy xizmatlar hamda ishlab chiqarish tarmoqlarida faoliyat yuritayotgan tadbirkorlar biznes muhitining yaxshilanganini qayd etdilar, maishiy xizmatlar, yuk tashish va ta'lim sohalarida bunday ijobiy baholar qisqardi.


Ishbilarmonlarning qayd etishicha, bank xizmatlari sifati, kredit olish imkoniyatlarining ortishi, raqobat muhitining yaxshilanishi, shuningdek, litsenziya va guvohnomalarni olish tartibining soddalashishi tadbirkorlik faolligini rag'batlantirgan asosiy omillardan bo'ldi. Soliq ma'murchiligi hamda bojxona tarif va cheklovlari borasida esa sezilarli ijobiy o'zgarishlar kuzatilmadi.

Respondentlarning 42 foizi gaz va elektr ta'minoti yaxshilanganini qayd etdi. Bunda qishloq xo'jaligi, umumiy ovqatlanish hamda tibbiyot sohaları yetakchi o'rin tutgan bo'lsa, yuk tashish xizmatlari va hunarmandchilik tarmoqlarida ijobiy baholar biroz kamaydi.


Qishloq xo'jaligi, umumiy ovqatlanish, hunarmandchilik va kommunal xizmatlar sohaları tadbirkorlari kredit olish imkoniyatlarida ijobiy o'zgarishlarni ma'lum qildilar, ta'lim sohasida esa bu ko'rsatkich biroz pasaydi. Shuningdek, qishloq xo'jaligi va umumiy ovqatlanish tarmoqlarida soliq ma'murchiligi bo'yicha ijobiy o'zgarishlar kuzatilgan.

Energiya resurslariga bo'lgan talab o'sishda davom etayotgani qayd etildi hamda umumiy ovqatlanish, hunarmandchilik va kommunal xizmatlar sohalarida yoqilg'i-energiya iste'molining oshgani kuzatildi. Shuningdek, qurilish sohasida ishlab chiqarish hajmining o'sishi, qishloq xo'jaligi va kommunal xizmatlar sohasida esa buyurtmalar hajmining ortishi kuzatilgan.


19-rasm. Sohalar kesimida biznes kayfiyati o'zgarishi, respondentlar ulushi, foizda



20-rasm. Biznes kayfiyatiga ta'sir etgan omillar, respondentlar ulushi, foizda



21-rasm. Iqtisodiy faollik ko'rsatkichlari, respondentlar ulushi, foizda





Qashqadaryo, Surxondaryo

Kreditlar va ular bo'yicha to'lovlar hajmida o'sish tendensiyasi davom etdi, 44 foiz tadbirkorlar qarz majburiyatlari ortganini bildirdi. Asosiy o'sish umumiy ovqatlanish, ishlab chiqarish va qurilish tarmoqlariga to'g'ri keldi.


Ishlab chiqarish quvvatlari bo'yicha ijobiy dinamika kuzatildi. O'rta va nisbatan yuqori quvvatlarda ishlayotgan subyektlar ulushi 3 foiz bandga oshdi va bu turizm, moliya, kommunal xizmatlari faollashuvi hisobiga yuzaga keldi. Shu bilan birga, tibbiyot, qurilish va ishlab chiqarish sohalaridagi korxonalar asosan, pastroq quvvatlarda ishlagani kuzatildi. Respondentlar to'liq quvvatda ishlashga to'siq bo'layotgan asosiy omillar sifatida ijara xarajatlarining yuqoriligi, avtomobil yonilg'isi narxining qimmatlashuvi hamda gaz-elektr energiyasi ta'minotidagi uzilishlarni qayd etdilar.

So'rov natijalariga ko'ra, tadbirkorlarning 58 foizi yoqilg'i va energiya iste'molining oshishini kutayotgan bo'lib, bunda asosan, kommunal xizmatlar, umumiy ovqatlanish, hunarmandchilik va ishlab chiqarish tarmoqlari vakillari eng yuqori talab o'sishini kutmoqdalar. Mehnat bozorida ham faollik o'sishi kutilmoqda, kommunal xizmatlar, ishlab chiqarish, moliya hamda qishloq xo'jaligi sohalarida qo'shimcha ishchi kuchiga ehtiyoj ortishi ta'kidlandi.


Buyurtmalar hajmi bo'yicha respondentlarning 58 foizi kelgusi chorakda ushbu ko'rsatkich o'sishini kutishmoqda. Ayniqsa kommunal xizmatlar, qishloq xo'jaligi va ishlab chiqarish tarmoqlarida o'sish ehtimolini ta'kidlaganlar ulushi yuqori. Kredit bozorida talab indikatorlari o'smoqda, kredit resurslariga bo'lgan ehtiyoj oldingi chorak bilan solishtirganda 13 foiz bandga o'sishi kutilmoqda. Yuqori talab, asosan, umumiy ovqatlanish, kommunal xizmatlar, qishloq xo'jaligi va ishlab chiqarish sohaları subyektlari tomonidan shakllanishi taxmin qilinmoqda.

Tadbirkorlarning 66 foizi kelgusi uch yilda mamlakat iqtisodiyoti va biznes muhiti yaxshilanishiga ishonch bildirdi.


22-rasm. Ayrim kunlarda faoliyat yuritmaslik sabablari, jami respondentlarning ulushi, foizda



23-rasm. Kelgusi chorak bo'yicha kutilmalar, respondentlar ulushi, foizda



24-rasm. Kelgusi 3 yilda iqtisodiyot va biznes istiqbollari bo'yicha kutilmalar, respondentlar ulushi, foizda





Jizzax, Sirdaryo


2025-yilning I choragida Jizzax va Sirdaryo viloyatlarida biznes muhiti yaxshilanishi darajasi o'tgan chorakka nisbatan sekinlashdi, biroq o'rtacha hisobda ijobiy dinamika saqlanib qoldi. So'rovda ishtirok etganlarning 54 foizi biznes yuritish shart-sharoitlari yaxshilanganini qayd etdi (2024 yil IV chorakda - 57 foiz). Ijobiy dinamika, asosan, umumiy ovqatlanish, fan-ta'lim, kommunal xizmat, savdo va ishlab chiqarish tarmoqlari hissasiga to'g'ri keldi. Biroq, qurilish, moliya hamda hunarmandchilik sohalarida o'tgan chorak bilan solishtirganda sezilarli o'zgarishlar yuz bermadi.

Tadbirkorlar raqobat muhitining yaxshilanishi, yo'l-transport infratuzilmasi sifati va kredit olish imkoniyatlari kengayishini eng muhim ijobiy omillar sifatida ko'rsatdilar. Bojxona tariflari, monopollashayotgan bozorlar ulushi va soliq ma'murchiligi borasida esa ko'rsatkichlar o'tgan chorak darajasida qolib, sezilarli o'sish qayd etilmadi.


Kredit olish imkoniyatlari bo'yicha ijobiy baholarning o'sishi biroz sekinlashgani bilan, 53 foiz tadbirkorlar kredit olish imkoniyatlari yaxshilanganini bildirdi. Ushbu o'sish umumiy ovqatlanish, qishloq xo'jaligi, qurilish va ishlab chiqarish tarmoqlarida yuqoriroq shakllandi. Buyurtmalar hajmi asosan, ishlab chiqarish, umumiy ovqatlanish va chakana savdo tarmoqlarida kengaydi.

Yoqilg'i-energiya iste'moli barqaror o'sib borayotgani qayd etilib, tadbirkorlarning 59 foizi ijobiy o'zgarish sezgan. Umumiy ovqatlanish, ta'lim, kommunal xizmatlar va savdo tarmoqlarida elektr energiyasi va yonilg'iga talab yuqori shakllangan.


25-rasm. Sohalar kesimida biznes kayfiyati o'zgarishi, respondentlar ulushi, foizda



26-rasm. Biznes kayfiyatiga ta'sir etgan omillar, respondentlar ulushi, foizda



27-rasm. Iqtisodiy faollik ko'rsatkichlari, respondentlar ulushi, foizda





Jizzax, Sirdaryo

Kreditlar hajmi va ular bo'yicha to'lovlar hajmini oshdi deb hisoblaganlar ulushi o'sishi davom etmoqda. Bunda eng katta o'sish qishloq xo'jaligi, ta'lim hamda aloqa-axborot texnologiyalari tarmoqlarida kuzatildi. Korxonalarning qariyb yarmi o'rta va yuqori quvvatlarda ishlayotganini bildirgan va ushbu ko'rsatkich o'tgan chorakka nisbatan biroz yaxshilangan.


O'rta hamda yuqori quvvatlarda faoliyat yuritgan korxonalar, asosan, aloqa-axborot texnologiyalari, kommunal xizmatlar va fan-ta'lim xizmatlari sektorlariga to'g'ri keldi. Quvvatlaridan to'liq foydalana olmagan tadbirkorlar esa, asosan, qishloq xo'jaligi, hunarmandchilik hamda qurilish tarmoqlarida faoliyat yuritmoqda. Asosiy to'siqlar sifatida energiya ta'minotidagi tez-tez uzilishlar, aylanma mablag'larning yetarli emasligi va ijara xarajatlarining yuqoriligi ko'rsatilgan.

Respondentlarning aksariyat qismi, xususan, umumiy ovqatlanish, chakana savdo va qishloq xo'jaligi vakillari — yoqilg'i hamda elektr energiyasiga bo'lgan talab sezilarli o'sishini kutmoqdalar. Mehnat bozorida ham yuqori faollik saqlanmoqda, respondentlarning 52 foizi qo'shimcha ishchi kuchiga ehtiyoji oshishini kutmoqda. Bunda asosiy o'sish ta'lim, umumiy ovqatlanish va ishlab chiqarish tarmoqlarida bo'lishi mumkin.


Buyurtmalar hajmi borasidagi kutilmalar ham o'suvchi yo'nalishda bo'lib, qurilish va umumiy ovqatlanish sektorlarida buyurtmalar hajmi ortishi, tashish hajmining ko'payishi mumkin. Shuningdek, tadbirkorlarning 48 foizi kelgusi chorakda kredit resurslariga ehtiyoji o'sishini kutmoqda. Bu ehtiyoj ayniqsa ta'lim, yetkazib berish va umumiy ovqatlanish sohalarida sezilarli bo'ladi.

So'rov natijalariga ko'ra, respondentlarning 59 foizi kelasi uch yil ichida mamlakat iqtisodiyoti va biznes muhiti yaxshilanishiga ishonch bildirdi (o'tgan chorakda — 56 foiz).


28-rasm. Ayrim kunlarda faoliyat yuritmaslik sabablari, jami respondentlarning ulushi, foizda



29-rasm. Kelgusi chorak bo'yicha kutilmalar, respondentlar ulushi, foizda



30-rasm. Kelgusi 3 yilda iqtisodiyot va biznes istiqbollari bo'yicha kutilmalar, respondentlar ulushi, foizda





Qoraqalpog'iston, Xorazm

2025-yilning I choragida Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyatida tadbirkorlik muhitiga nisbatan ishonch barqaror yuqori darajada saqlandi, so'rovda qatnashgan tadbirkorlarning 61 foizi biznes yuritish sharoitlari yaxshilanganini qayd etdi. Ijobiy o'zgarishlar, birinchi navbatda, tashish xizmatlari, kommunal xizmatlar hamda moliya sektorida yuqoriroq kuzatildi.


Biznes vakillari raqobat muhiti barqaror tarzda yaxshilanib, bank xizmatlari sifati oshganini, shuningdek, litsenziya olish va kreditlash jarayonlari soddalashtirganini asosiy ijobiy omillar sifatida ta'kidladi. Biroq soliq ma'murchiligi, monopollashuv darajasi va bojxona tariflari sohalarida sezilarli o'zgarish kuzatilmagan.

Energiya ta'minoti va yo'l-transport infratuzilmasi bo'yicha ko'rsatkichlar o'zgarishsiz qolgan bo'lsa-da, mazkur tarmoqlarda yaxshilanishni qayd etgan tadbirkorlar ulushi oshgan. Ayniqsa, ta'lim, moliya va turizm sohalarida vakillari energiya va infratuzilma xizmatlarida sezilarli ijobiy o'zgarishlarga e'tibor qaratishgan.


Yoqilg'i-energiya iste'molining o'sishi sur'ati sekinlashgani kuzatilsa-da, talab yuqoriligicha qolmoqda, moliyaviy, tibbiyot, kommunal xizmatlar, tashish xizmatlari va qurilish tarmoqlarida energiya sarfi barqaror o'sishda davom etmoqda.

Qo'shimcha ishchi kuchiga talab va ishlab chiqarish hajmi o'rtacha hisobda o'zgarishsiz qolgani qayd etildi. Buyurtmalar hajmi esa umumiy hisobda o'sgan, ayniqsa, tashish xizmatlari, tibbiyot, umumiy ovqatlanish va qurilish sohalarida talabning yuqori o'sishi qayd etildi. Kreditlar va ular bo'yicha to'lovlar hajmida ham tadbirkorlik faolligining o'sishi kuzatildi. Tibbiyot, tashish xizmatlari, qishloq xo'jaligi va moliya tarmoqlarida qarz majburiyatlarining yuqori oshgani kuzatildi.


31-rasm. Sohalar kesimida biznes kayfiyati o'zgarishi, respondentlar ulushi, foizda



32-rasm. Biznes kayfiyatiga ta'sir etgan omillar, respondentlar ulushi, foizda



33-rasm. Iqtisodiy faollik ko'rsatkichlari, respondentlar ulushi, foizda





Qoraqalpog'iston, Xorazm

Korxonalarning ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish ko'rsatkichi yaxshilandi, 51 foiz tadbirkorlar o'rta va yuqori quvvatlarda ishlayotganini ma'lum qildi (IV chorakda 41 foiz).

Quvvatdan to'liq foydalana olmayotgan tadbirkorlar energiya ta'minotidagi uzilishlar, aylanma mablag'lar yetishmasligi, soliq tizimidagi murakkabliklar hamda avtomobil yonilg'isi narxi oshganini ta'kidladilar.


Respondentlar yoqilg'i va energiya iste'moli, shuningdek, buyurtmalar hajmi oshishini kutishmoqda. Ayniqsa kommunal xizmatlar, tashish, moliya va tibbiyot sohalarida o'sish sur'atlari yuqori bo'lishi mumkin. Shunga qaramay, qo'shimcha ishchi kuchiga bo'lgan talab borasidagi optimizm pasayib, maishiy xizmatlar, kommunal xizmatlar, moliya va savdo tarmoqlarida talab sekinlashishi kutilyapti.

Tashish, umumiy ovqatlanish va tibbiyot sohalarida ishlab chiqarish hajmi ortishi bo'yicha kutilmalar tendensiyasi saqlangan. Tadbirkorlarning yarmidan ko'pi buyurtmalar hajmining oshishini taxmin qilmoqda. Sohalar kesimida tibbiyot, tashish va ishlab chiqarish tarmoqlari eng ijobiy kutilmalarni namoyon etmoqda.


Qo'shimcha kredit resurslariga ehtiyojdagi o'sish sur'ati sekinlashgan bo'lib, asosan tibbiyot, yetkazib berish hamda maishiy xizmatlar sohalarida qarz mablag'lariga talab o'sishi bo'yicha kutilmalar saqlanmoqda.

So'rovnomada qatnashgan biznes vakillarining 63 foizi kelgusi uch yilda mamlakat iqtisodiyoti va biznes muhiti yaxshilanishiga ishonch bildirdi, o'tgan chorakka nisbatan ijobiylik biroz yuqorilagani ta'kidlandi.

34-rasm. Ayrim kunlarda faoliyat yuritmaslik sabablari, jami respondentlarning ulushi, foizda



35-rasm. Kelgusi chorak bo'yicha kutilmalar, respondentlar ulushi, foizda



36-rasm. Kelgusi 3 yilda iqtisodiyot va biznes istiqbollari bo'yicha kutilmalar, respondentlar ulushi, foizda

